INSON VA SUN’IY INTELLEKT MULOQOTIDA SAVOL-JAVOB SHAKLLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Muslimaxon Botirjon qizi Mirzamatova*
FarDU, Chet tillari fakulteti, 1-kurs magistranti
✉ muslimaxonmirzamatova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi muloqotda savolning grammatik shakli hamda kommunikativ maqsadi o‘rtasidagi munosabat alohida lingvistik tahlilni talab qiladi. Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi inson - sun‘iy intellekt o‘rtasidagi savol-javob shakllarining grammatik va pragmatik xususiyatlarini qiyoslashdan iborat. Qiyosiy-deskriptiv, kontekstual va pragmatik tahlil asosida so‘roq konstruksiyalari, iltimos ifodalari va aniqlashtirish strategiyalari o‘rganildi. Natijalar ikki tilda umumiy kommunikativ vazifalar bilan birga grammatik va pragmatik farqlar ham mavjudligini aniqlashga imkon berdi.

Kalit so‘zlar

sun’iy intellekt, inson–AI muloqoti, savol-javob, lingvopragmatika, kommunikativ strategiya, so‘roq gap, raqamli diskurs.

DOI: 10.5281/zenodo.24435837

KIRISH

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining kundalik hayotda keng qo‘llanilishi insonlarning axborot izlash va muloqot qilish odatlariga sezilarli darajada o‘zgarishiga turtki bo‘ldi. Masalan, ChatGPT kabi suhbatga asoslangan tizimlar savol mazmunini qayta ishlash, javob tayyorlash, qo‘shimcha izoh berish va suhbatning oldingi qismlariga murojaat qilish imkoniyatiga ega. J. L. Austin (1962) til birliklarini muayyan harakatni amalga oshirish vositasi sifatida talqin qiladi. J. R. Searle (1969) esa nutqiy aktlarni kommunikativ maqsadlariga ko‘ra tasniflab, gapning grammatik shakli va uning amaliy vazifasi o‘rtasidagi farqni ochib beradi.

Metodlar

Tadqiqotda qiyosiy-deskriptiv, kontekstual, pragmatik va diskurs tahlili metodlariga murojaat qilindi. Ularning yordamida savol va javoblarning grammatik tuzilishi, mazmuni hamda muloqotdagi vazifalari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqildi. Tahlil sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi savol-javob almashinuvlarini ifodalovchi namunaviy dialoglar tanlab olinib;. misollar so‘rash, axborot olish, tushuntirish so‘rash, iltimos bildirish, aniqlashtirish va oldingi javobga munosabat bildirish kabi kommunikativ vaziyatlarni o‘z ichiga olgani. Nazariy asosni Austinning nutqiy aktlar nazariyasi, Searlening nutqiy aktlar tasnifi, Grice (1975) tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlik tamoyili hamda Clark va Brennan (1991)ning muloqot jarayonida umumiy tushuncha shakllanishiga oid qarashlari tashkil etdi. Herring (2004)ning kompyuter vositasidagi diskurs tahliliga oid yondashuvi ham tadqiqotda hisobga olindi. Mazkur ilmiy qarash raqamli muhitdagi muloqotni til birliklari, ishtirokchilar munosabati va kommunikativ vaziyat bilan bog‘liq holda o‘rganishga qaratilgan.

Ingliz tilida umumiy so‘roq gaplar, odatda, yordamchi fe’lning egadan oldin kelishi orqali tuziladi. Masalan, “Can you explain this topic?” va “Do you understand my question?” kabi jumlalarda yordamchi fe’llar so‘roq shaklini hosil qiladi. Birinchi gapda foydalanuvchi tushuntirish so‘rayotgan bo‘lsa, ikkinchi savolni berish orqali suhbatdoshning savolni anglagan-anglamaganini bilishga harakat qiladi. O‘zbek tilida so‘roq gaplarning shakllanishida -mi yuklamasi, so‘roq olmoshlari va intonatsiya muhim o‘rin tutadi. “Bu mavzuni tushuntirib bera olasizmi?” va “Siz mening savolimni tushundingizmi?” jumlalarida -mi yuklamasi so‘roq ma’nosini ifodalaydi. “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Qaysi usulda?” kabi birliklar esa savolning mazmuniy yo‘nalishi va maqsadini belgilaydi. Savollarning pragmatik xususiyatlari ham tahlil uchun alohida material berdi. (Searle, 1969). English: “Could you explain the second point again?”, Uzbek: “Ikkinchi fikrni yana bir bor tushuntirib bera olasizmi?” Bu kabi almashinuvda dastlabki savol-javobdan keyin yangi kommunikativ bosqich boshlanadi. Foydalanuvchi oldingi javobni baholab, yetishmayotgan ma’lumotni aniqlashtirishga

harakat qiladi. Natijada suhbat bir martalik axborot almashinuvi doirasidan chiqib, o‘zaro bog‘langan savol va javoblar ketma-ketligiga ulanadi va avvalgi suhbatlar asosida anglashiladi. AI tizimi savol mazmuniga qarab ta’rif, izoh, misol, taqqoslash yoki bosqichma-bosqich tushuntirish tarzida javob tayyorlashi mumkin. O‘zbek tilidagi “Semantika va pragmatikaning farqi nimada?” savolida ham mazmunan o‘xshash javob tuzilishi kutiladi. Shunga qaramay, terminlarning tanlanishi, izohlarning ifodalanishi va gap qurilishi har bir tilning grammatik hamda leksik xususiyatlariga moslashadi. Austin (1962) va Searle (1969) nazariyalari nuqtayi nazaridan qaralganda, inson–AI muloqotida gapning tashqi shakli va bajaradigan vazifasi o‘rtasidagi munosabat alohida tahlilni talab qiladi. Masalan, “Can you tell me the answer?” jumlasi grammatik jihatdan savol bo‘lsa-da, foydalanuvchining maqsadi suhbatdoshning imkoniyatini tekshirish emas, balki undan javob olishdir. O‘zbek tilidagi “Javobini aytib bera olasizmi?” jumlasi ham shunga yaqin pragmatik ma’noni anglatadi.

Muhokama

Grice (1975) tomonidan ilgari surilgan hamkorlik tamoyili suhbatdagi axborotning yetarliligi, aniqligi, mavzuga mosligi va ifoda usuliga e’tibor qaratadi. Agar javob savol mazmuniga mos kelmasa yoki foydalanuvchi kutganidan ortiqcha tafsilotlarni o‘z ichiga olsa, savol qayta tuzilishi yoki qo‘shimcha izoh so‘ralishi mumkin. Clark va Brennan (1991) muloqot ishtirokchilari o‘rtasida umumiy tushuncha shakllanishi uchun fikrlar bosqichma-bosqich aniqlashtirilishini ta’kidlaydi. Inson–AI suhbatida mazkur jarayon qo‘shimcha savollar, misollar va qayta izohlash orqali kechadi. Biroq insonlar o‘rtasidagi muloqotdan farqli ravishda, sun’iy intellektning javoblari insoniy tajriba yoki shaxsiy niyatga emas, balki til modelining matn va kontekstni qayta ishlash mexanizmlariga asoslanadi. Luger va Sellen (2016) suhbat agentlaridan foydalanuvchilarning kutishlari bilan texnologiyalarning amaldagi imkoniyatlari o‘rtasidagi tafovutni o‘rgangan.

XULOSA

Tahlil inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi savol-javob jarayoni grammatik, leksik, semantik va pragmatik omillar bilan chambarchas bog‘liqligini aniqlashga asos bo‘ldi. Savolning tuzilishi, kommunikativ maqsadi, so‘z tanlovi, muloyimlik darajasi va suhbat konteksti javobning mazmuni hamda shakliga ta’sir qiladi. Ingliz va o‘zbek tillarida so‘roq gaplarning grammatik ifodalanishi turlicha bo‘lsa-da, axborot olish, iltimos bildirish, tushuntirish talab qilish va aniqlashtirish kabi kommunikativ vazifalar o‘xshashdir. Ingliz tilida yordamchi fe’llar va so‘z tartibi, o‘zbek tilida esa so‘roq yuklamalari, qo‘shimchalar va intonatsiya yetakchi grammatik vositalar hisoblanadi. Muloyimlik ifodalovchi birliklar ham har ikki tilda o‘ziga xos shakllarda ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austin, J. L. (1962). How to do things with words. Oxford University Press.
2. Clark, H. H., va Brennan, S. E. (1991). Grounding in communication. In L. B. Resnick, J. M. Levine, va S. D. Teasley (Eds.), Perspectives on socially shared cognition (pp. 127–149). American Psychological Association.
3. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole va J. L. Morgan (Eds.), Syntax and semantics: Vol. 3. Speech acts (pp. 41–58). Academic Press.
4. Herring, S. C. (2004). Computer-mediated discourse analysis: An approach to researching online behavior. S. A. Barab, R. Kling, va J. H. Gray (Eds.), Designing for virtual communities in the service of learning (pp. 338–376). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511805080.016
5. Luger, E., va Sellen, A. (2016). “Like having a really bad PA”: The gulf between user expectation and experience of conversational agents. In Proceedings of the 2016 CHI Conference on Human Factors in Computing Systems (pp. 5286–5297). Association for Computing Machinery. https://doi.org/10.1145/2858036.2858288
6. Searle, J. R. (1969). Speech acts: An essay in the philosophy of language. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9781139173438